

# O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA GID HAMROHLIGI VA TARJIMONLIK FAOLIYATINING AHAMIYATI

**Ibodillayev Habibulla Abdullayevich**

**Annotatsiya:** Mazkur tadqiqot chet ellik sayyoohlarni O'zbekistonda kuzatib borish va bu jarayonda yuzaga keladigan muammolarga bag'ishlangan. Mamlakatning turistik salohiyatini oshirish uchun gid hamrohligi va sifatli tarjimonlik faoliyatining ahamiyati borasida xulosalar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Turizm, sayyoohlar, O'zbekiston, gid hamrohligi, tarjmonlik faoliyati, til, xavfsiz turizm.

## РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ ВАЖНОСТЬ СОПРОВОЖДЕНИЯ ГИДОМ И ПЕРЕВОДЧИКОМ

**Ибодиллаев Хабибулла Абдуллаевич**

**Аннотация:** Данное исследование посвящено отслеживанию иностранных туристов в Узбекистане и проблемам, возникающим при этом. Сделаны выводы относительно важности проведения гидовой и качественной переводческой деятельности для повышения туристского потенциала страны.

**Ключевые слова:** Туризм, туристы, Узбекистан, экскурсовод, переводческая деятельность, язык, безопасный туризм.

## DEVELOPING TOURISM IN UZBEKISTAN THE IMPORTANCE OF GUIDE ACCOMPANIMENT AND INTERPRETER ACTIVITY

**Ibodillayev Habibulla Abdullayevich**

**Abstract:** This study is devoted to tracking foreign tourists in Uzbekistan and the problems that arise in this process. Conclusions are given regarding the importance of guide accompaniment and quality interpreting activities to increase

the country's tourist potential.

**Key words:** Tourism, tourists, Uzbekistan, tour guide, translation activities, language, safe tourism.

## KIRISH

Bugungi kunda turizm zamonaviy dunyoning eng serdaromad va talab yuqori bo'lgan sohalaridan hisoblanadi. Jamiat uchun turizm - bu dunyo va uning go'zalligini bilish, turli xalqlarning madaniyati bilan tanishish va maroqli hordiq chiqarish uchun qulay imkoniyatlar yaratib beruvchi sohadir. Shu nuqtai nazardan dunyoda yildan-yilga yangidan-yangi turistik maskanlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Buning natijasida soha bo'yicha katta yutuqlarga erishgan mamlakatlar o'zlarining turistik salohiyatlarini yanada takomillashtirishga, xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga harakat qilmoqdalar. Bunday talabdan kelib chiqib, turistlarning xavfsizligi va huquqlarini himoya qilish, sifatli turistik xizmatlar ko'rsatish borasida turli muammolar yuzaga kelishi tabiiy hol. Hamma sayyohlar ham notanish joylarda, notanish tillarda so'zlashadigan mamlakatlarda oson sayohat qila olmaydi. Buning uchun odamlarga sayohat hududiga moslashishga va muloqot qilishga ko'maklashuvchi gid va tarjimonlar yaqindan yordam beradilar[1;78].

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Gid hamrohligi xizmati turizmning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, usiz turizmni tasavvur qilish qiyin, chunki bu xizmat iste'molchining sayohatini osonlashtiradi, sayohatlarni tashkil etish va boshqa turli masalalar bilan bog'liq ko'plab tashvishlardan xalos bo'lishga imkon beradi. Bu kabi vazifalarning barchasi gid-tarjimonlar tomonidan amalga oshiriladi va xorijlik turistning notanish mamlakatda turli qiyinchiliklarga duch kelishining oldi olinadi. Odatda, chet ellik sayyohlarga hamrohlik qilish funksiyasi chet tilini yaxshi biladigan, tarjimonlik qilish va xorijiy sayyohlarni mamlakatning diqqatga sazovor obyektlari bilan

tanishtirish bo'yicha yetarli bilim va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan gid-tarjimonga yuklatiladi. Shu bilan bir qatorda gid-tarjimonlar o'z kasbi bilan aloqador quyidagi talablarga javob bera olishi lozim: – Muloqot etikasiga oid bilimlarga ega bo'lish; – biznes protokoli va odob-axloq qoidalarini bilish; – ehtiyojlarni shakllantirish va shaxslararo muloqot nazariyasini bilish; - chet ellik sayyoohlar uchun sayohatlarni tashkil etish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish, chet tilida sayohat uysushtirish uchun materiallar ishlab chiqish, turistik marshrutlar bo'yicha tarjima qilish va ekskursiya xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur bo'lgan darajada chet tilini bilish; - notiqlik san'atini bilish[2;76].

Chet ellik sayyoohlarni gid-tarjimon yoki boshqa mansabdor shaxs kuzatib borishi xorijdan mamlakatimizga kelayotgan turistlarning soni va ularning tarkibi bilan bog'liq. Xalqaro turizm taraqqiyotida har doim turli muammolar yuzaga kelgan. Bunday muammolar mentalitet, til, urf-odat, an'ana va axloqiy tamoyillarning bir-biridan tubdan farq qilishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan gidlar va tarjimonlar sayyoohlarning mentaliteti va urfodatlaridan xabardor bo'lishi va shunga muvofiq o'zaro harakatlarni muvofiqlashtirib borishi maqsadga muvofiqdir. Bunday vaziyat yuzaga kelmasa ham, har doim bu kabi muammolar paydo bo'lishi xavfi mavjud. Natijada xorijiy sayyoohlar bunday holatdan butunlay ko'ngli qolgan holda mamlakatni tark etishadi. Shuningdek, mezbon mamlakatni tark etgan hafsalasi pir bo'lgan sayyooh o'z do'stlariga u yerga kelishni maslahat bermaydi, boshqa tomondan, do'stlar bu ma'lumotni boshqa tanishlarga yetkazishadi, buning natijasida ko'plab potensial mehmonlar yo'qotiladi.

Chet elda bo'lgan sayyooh, bu mamlakatga bir necha marta tashrif buyurgan bo'lsa ham, har doim ma'lum darajada stressni boshdan kechiradi. Shuning uchun u yashash joyining o'zgarishiga, boshqa qonunlar va an'analarga, iqlim va vaqt zonasining o'zgarishiga moslashishi kerak. Bunday vaziyatda unga to'g'ridan-to'g'ri hamrohlik qiluvchi va psixologik yordam beruvchi gid-tarjimonlar yordamga kelishi

zarur. Turistni psixologik qo'llabquvvatlash bilan bog'liq jarayon atrof-muhit sharoitlariga moslashishda yordam berish (mamlakatning urf-odatlari, an'analari va qonunlari), kutilmagan vaziyatlarda turistni qo'llabquvvatlashni o'z ichiga oladi. Psixologik yordam chet ellik sayyohda mamlakatda qulay dam olishi mumkinligi haqida ijobiy taassurot qoldirishga yordam berishi kerak. Psixologik usullarni yaxshi bilmaydigan gid-tarjimon stressli vaziyatlarga dosh bera olmasligi, nizolar yuzaga kelganda sarosimaga tushib qolishi va shuning uchun xorijlik sayyohga yetarlicha psixologik yordam bera olmasligi mumkin. Bundan tashqari, psixologik jihatdan tayyor bo'limgan gid-tarjimonning o'zi mojaroga sabab bo'lishi yoki uni kuchaytirishi mumkin.

Turistlarni muvaffaqiyatli psixologik qo'llab-quvvatlash uchun gid katta bilimga ega bo'lishi va turistlarning o'ziga xos xususiyatlariga, ularning yoshi va ijtimoiy tarkibiga moslashish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak<sup>3</sup>. Xorijlik sayyohlarni kuzatib borishdagi navbatdagi muammo gid-tarjimon lavozimlariga salohiyatlari xodimlarni tanlab olish, ularni yanada rivojlantirish va malakasini oshirishdir. Zero, malakali kadrlar yetishmasligi turizm xizmatlari bozorida rivojlanish kuzatilmasligiga sabab bo'ladi. Gid-tarjimonlik faoliyati bilan shug'ullanish nafaqat oliy kasbiy ma'lumot, ish tajribasi, balki potensial xodimning ma'lum shaxsiy va kasbiy fazilatlari to'plamini ham talab qiladi. Ko'pincha, ish beruvchi ishga qabul qilishda bu fazilatlarga emas, balki diplom va undagi baholarga e'tibor beradi. Diplom va undagi baholarning mavjudligi hali xodimning samaradorligini va uning salohiyatini ko'rsatmaydi.

Bo'lajak xodimning shaxsiy va kasbiy tajribasi, uning motivatsiyasi ham muhimdir. Bu mezonlarning barchasi bir-biri bilan chambarchas bog'liq va ajralmasdir. Malakali bo'lishdan tashqari, gid-tarjmonlar ijodiy bo'lishi, ma'lumotni qiziqarli tarzda taqdim etishi va chet elliklarni qiziqtira olishi ham kerak. Bu muammo, shuningdek O'zbekistonda turizm bo'yicha ta'lim tizimi nisbatan yaqinda

shakllana boshlaganligi va har doim ham gid-tarjimonlarni tayyorlashga tegishli e'tibor berilmasligi bilan bog'liq. Buni manbalar tahlili natijalari ham tasdiqlaydi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun so'nggi yillarda mamlakatimizda gid-tarjimonlar tayyorlash bo'yicha ta'lif yo'naliшlarining soni oshib bormoqda, turizm bo'yicha salohiyatlari kadrlar tayyorlash masalasiga davlat tomonidan katta ahamiyat qaratilmoqda, soha rivojining huquqiy asoslari yaratilmoqda.

Jumladan, 2021-yil 24-fevralda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ichki ziyyarat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori<sup>4</sup>, 2018-yil 3-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"<sup>5</sup> Farmoni qabul qilingan bo'lib, ushbu hujjatlar sohani rivojlantirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, sohani rivojlantirish uchun xorijlik sayyoхlar bilan ishlovchi gid-tarjimonlarning til bo'yicha malakalarini oshirish, bu muammoni hal etishga mutasaddi tashkilotlarni jalb etish tavsiya etiladi.

Xodimlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirish va takomillashtirish muammosini hal qilish malaka oshirish va qayta tayyorlash bo'yicha ta'lif dasturlarini amalga oshirishdan iborat bo'lib, bu quyidagilarga imkon beradi: – xodimlarning kasbiy malaka darajasini oshirish; – xodimlarning kasbiy samaradorligini oshirish; - kadrlar yetishmasligi va almashinushi muammosini qisman yoki to'liq hal qilish; – nazorat choralar xarajatlarini kamaytirish. XULOSA Gid-tarjimonlarni moddiy va ma'naviy jihatdan rag'batlantirish, shuningdek, ularning o'sish imkoniyatini ta'minlash xorijlik sayyoхlarga xizmat ko'rsatish sifatiga yaxshi ta'sir qiladi, chunki turistik tashkilotlarning malakali xodimi xorijlik mehmonga mamlakatimizni chiroyli va maftunkor ko'rinishda taqdim eta oladi, ularga ushbu sayohatdan unutilmas, ijobiy taassurot qoldiradi. Natijada esa mamlakatning turizm sohasidagi nufuzi oshadi, chunki ketgan xorijlik sayyoх

nafaqat qaytib keladi, balki o’z tanishlari va do’stlariga ham mamlakatimizdagi turistik imkoniyatlarni tavsiflaydi. Shuningdek, huquqiy muammolarni hal qilishda qonunchilikni takomillashtirish, gid-tarjimonlar uchun ularning funksiyalari, huquq va majburiyatlarini o’z ichiga olgan konsepsiyanı ishlab chiqish zarur.

### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki ziyyarat turizmini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2021-yil 24-fevraldag'i 100-sonli qarori.
- 2.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida”gi 2018-yil 3-fevraldag'i 5326-sonli Farmoni.
3. Д.Х. Кадиров. Развитие халяльного туризма в Узбекистане // Вестник науки и образования, 2020. № 6-1 (84).
4. Кусерова А. И. Документационное обес-пече-ние сопровождения туристов // Вестник ВНИИДАД. 2021. № 2. С. 27–34.
5. Савичев А. Ю. Правовая регламентация деятельности экскурсоводов (гидов), гидов-переводчиков и инструкторов-проводников. Административное и муниципальное право. 2020. № 3. С. 1–12.